

№432, 2-dekabr, 2021 y.

**COVID  
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 1-dekabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	263 032 694	(+ 596 390)
Sog'ayganlar soni	-	237 523 580	(+ 511 137)
Vafot etganlar soni	-	5 232 992	(+ 7 893)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	49 428 913	(+ 106 876)
	Hindiston	-	34 596 776	(+ 8 954)
	Braziliya	-	22 094 459	(+ 9 710)
	Buyuk Britaniya	-	10 228 772	(+ 39 716)
	Rossiya	-	9 636 881	(+ 32 648)
	Turkiya	-	8 795 588	(+ 25 216)
	Fransiya	-	7 675 504	(+ 47 177)
	Eron	-	6 117 445	(+ 4 253)
	Argentina	-	5 881 423	(+ 55 880)
	O'zbekiston	-	193 424	(+ 216)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



# O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 30-noyabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 807 852	12 683
Andijon viloyati	3 260 581	17 386
Buxoro viloyati	1 955 599	11 736
Jizzax viloyati	1 313 745	6 732
Qashqadaryo viloyati	2 548 665	25 301
Navoiy viloyati	1 219 048	4 228
Namangan viloyati	3 366 842	16 717
Samarqand viloyati	3 600 522	47 949
Surxondaryo viloyati	2 758 495	16 436
Sirdaryo viloyati	794 463	3 366
Toshkent viloyati	3 260 151	25 199
Farg'ona viloyati	3 710 770	33 374
Xorazm viloyati	2 085 950	14 062
Toshkent sh.	2 257 325	32 324
<b>Jami</b>	<b>33 940 008</b>	<b>267 493</b>

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>





# BioNTech rahbari “Omisron” shtammiga qarshi vaktsina samaradorligini baholadi

Germaniyaning BioNTech kompaniyasi o‘zining amerikalik hamkori Pfizer bilan hamkorlikda ishlab chiqqan Comirnaty vaktsinasi Omicron koronavirusining yangi shtammiga qarshi samarali bo‘lishi mumkin. Bu haqda seshanba kuni Reuters agentligiga BioNTech bosh direktori va hammuassisi Ugur Shahin [2] ma’lum qildi.



Shahinning ta’kidlashicha, konsorsium tomonidan ishlab chiqilgan vaktsina Omicron shtammi keltirib chiqaradigan kasallikning har qanday og‘ir variantidan ishonchli himoyani ta’minlaydi. Biroq, uning qo‘shimcha qilishicha, keyingi ikki hafta ichida qonda topilgan antitanalar koronavirusning yangi shtammini qanchalik qarshi kurashganini

aniqlash uchun Comirnaty vaktsinasining ikki yoki uch dozasi olgan shaxslarning qon tahlillarini olib borish uchun laboratoriya tekshiruvlari o‘tkaziladi. “Biz insonlar

Omisron shtammi keltirib chiqaradigan kasallikning og‘ir kechishidan sezilarli darajada himoyalaniishlariga ishonamiz”, dedi Shahin. Shu bilan birga, kasallikning bunday kechishi kasalxonaga yotqizishni yoki intensiv terapiyani talab qilishi mumkinligini aytib o‘tdi.

Maynsdagi firma rahbarining ta’kidlashicha, laboratoriya sinovlariga ko‘ra Omicron shtammi keltirib chiqaradigan yengil va o‘rtacha kasallikda emlashdan keyin immunitet himoyasini biroz yo‘qotishini ko‘rsatishi mumkin, ammo bu yo‘qotish darajasini oldindan aytish qiyin. Hozirda BioNTech kompaniyasi Janubiy Afrikada



aniqlangan koronavirusning yangi Omicron shtammini o‘rganish bilan bir qatorda vaktsinani yangi mutatsiyalarga moslashtirish ustida ish olib borilmoqda, hamda, bu o‘rganishlardan kelajakda foydalanish mumkin.

Shuningdek, Shahin, vaktsinaning uchinchi, kuchaytiruvchi dozasi faqat ikkita dozani olganlarga nisbatan yetarli darajada himoya qilishini ta’kidladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, tashvishlanish uchun hech qanday sabab yo‘q, faqat umuman emlanmagan bemorlar xavotirga sabab bo‘ladi [3].



## Xitoyda 1,1 milliarddan ortiq fuqarolar COVID-19ga to'liq emlandi

Xitoyda 1,1 milliarddan ortiq fuqaro COVID-19 ga qarshi to'liq emlandi, dedi Xitoy Xalq Respublikasi Sog'liqni saqlash davlat qo'mitasi matbuot kotibi Mi Feng matbuot anjumanida [4].

“29-noyabr holatiga ko'ra, Xitoyda COVID-19 ga qarshi 2,49 milliard doza vakcina foydalanildi va vaksinani to'liq olganlar soni 1,1 milliarddan oshib, 1 million 110 million 506 ming nafarga yetdi”, dedi Mi Feng.



Xitoyning nafas yo'llari kasalliklari bo'yicha yetakchi mutaxassisi Chjung Nanshan avvalroq XXR yil oxiriga qadar aholining 80 foizini koronavirusga qarshi emlashni rejalashtirayotganini aytgan edi. Aholini ro'yxatga olish bo'yicha so'nggi statistik ma'lumotlariga ko'ra, Xitoyda 1,4 milliarddan ortiq kishi istiqomat qiladi [5].



# Rossiyaning Inson ildiz hujayralari instituti COVID-19 qarshi preparat ishlab chiqishni boshlaydi

Rossiyaning Inson ildiz hujayralari instituti koronavirusga qarshi preparat yaratishga kirishdi, uning dastlabki prototiplari uch-to'rt oy ichida yaratilishi mumkin, dedi kompaniya direktorlar kengashi raisi Artur Isayev TASS axborot agentligiga bergan intervyusida. "Biz rivojlanishning dastlabki bosqichidamiz. Biz yaqin uch-to'rt oy ichida preparatning birinchi prototiplarini olishni reja qilgimiz. Agar ushbu prototiplar o'zlarining samaradorligini namoyish qilsa, biz klinikoldi sinovlarga tayyorgarli ko'ramiz", dedi u [6].



Preparat ko'pchilik ma'lum bo'lgan koronavirus mutatsiyalariga qarshi samarali ekanligini ta'kidlashmoqda. Preparat COVID-19 bilan kasallanganlar tanasida virusning faol ko'payishini bloklaydi va o'limni kamaytiradi [7]. Isayev, shuningdek, xolding yangi Omicron koronavirus shtammiga qarshi Betuvax vaktsinasining samaradorligini baholashini ma'lum qildi.

"Keyingi haftalardan ikki-uch-to'rt hafta davomida biz Betuvax vaktsinasini Omicron virusining serotipini zararsizlantirish yoki yo'qligini aniqlash uchun bir qator tajribalarni rejalashtirdik. Tekshiruvlardan so'ng bir qarorga kelamiz», - dedi Isayev. Uning so'zlariga ko'ra, Inson ildiz hujayralari instituti zarurat tug'ilganda vaktsinani o'zgartirish imkoniyatini ko'rib chiqadi, ayni paytda ma'lumotlarga ko'ra, "vaktsina virusning eng keng tarqalgan serotiplarini zararsizlantirishda yaxshi xususiyatlarga ega".




# Yangi COVID-19 vakinasini baholash koronavirus infeksiyasi bilan amalga oshiriladi



N.F. Gamaley nomidagi Milliy Epidemiologiya va Mikrobiologiya ilmiy-tadqiqot markazi Mudofaa vazirligining 48-Markaziy ilmiy-tadqiqot institutida yangi koronavirus vakinasining samaradorligini baholashni boshladi. Tadqiqot ba'zi primatlar hayvonlarda odamlardan ajratilgan viruslar bilan yuqtirgan ustida o'tkaziladi.

Virusga o'xshash zarrachalar texnologiyasidan foydalangan holda nomzod vaksinaning samaradorligi 18 ta rezus maymunida baholanadi. Vakcina mushak ichiga yuboriladi [8].

Hayvonlarga adyuvant vaksinani, alohida adyuvant va platsebo holatda yuboriladi. Sakkizinchi kuni hayvonlarning bir qismi odam koronavirusi bilan kasallanadi. Infekcion intranazal tarzda foydalaniladi. Primatlarni o'rganish davomida neytrallashtiruvchi antitanalar darajasi, hujayra immunitetining holati va shilliq qavatlarda virus mavjudligi baholanadi. Hayvonlar Mudofaa vazirligining 48-Markaziy ilmiy-tadqiqot institutiga ikkinchi dozadan keyin 21 kundan kechiktirmay yetkaziladi.



Primatlarni yuqtirgandan so'ng, "ADE vakcina ta'siri" baholanadi. Gap antitanalarga bog'liq kuchayishni (ADE) o'rganish haqida bormoqda, deb xabar beradi Gamaley markaz matbuot xizmati. Bu antitanalar virusni to'sib qo'ymaydigan, ammo patogenning ko'payishini kuchaytiradigan hodisa, bu esa infeksiyaning kuchayishiga olib keladi [9].

Tadqiqot 2021-yil 20-dekabrda yakunlanishi kerak.



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (1.12.2021)
2. Глава BioNTech заявил, что ее вакцина от COVID-19, вероятно, эффективна от омикрон-штамма // <https://tass.ru/obschestvo/13073131> (30.11.2021)
3. Глава BioNTech оценил эффективность вакцины компании против омикрон-штамма // <https://lenta.ru/news/2021/11/30/shahin/> (30.11.2021)
4. Over 1.1b people in China complete COVID-19 vaccination // [http://english.www.gov.cn/statecouncil/ministries/202111/30/content\\_WS61a5e06bc6d0df57f98e5cce.html](http://english.www.gov.cn/statecouncil/ministries/202111/30/content_WS61a5e06bc6d0df57f98e5cce.html) (30.11.2021)
5. В Китае более 1,1 миллиарда человек завершили полную вакцинацию от COVID-19 // <https://ria.ru/20211130/vaktsinatsiya-1761406645.html> (30.11.2021)
6. Human Stem Cells Institute begins work on developing drug against COVID-19 // <https://tass.com/science/1368287> (30.11.2021)
7. ИСКЧ начал разработку лекарства от COVID-19 // <https://pharmvestnik.ru/content/news/ISKCh-nachal-razrabotku-lekarstva-ot-COVID-19.html> (30.11.2021)
8. Исследование новой российской вакцины от COVID-19 проведут с инфицированием коронавирусом // <https://medvestnik.ru/content/news/Issledovanie-novoi-rossiiskoi-vakciny-ot-COVID-19-provedut-s-inficirovaniem-koronavirusom.html> (30.11.2021)
9. Оценку новой вакцины от COVID-19 проведут с инфицированием коронавирусом // <https://pharmvestnik.ru/content/news/Ocenku-novoi-vakciny-ot-COVID-19-provedut-s-inficirovaniem-koronavirusom.html> (30.11.2021)



**COVID  
19**

**Coronavirus  
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021